SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.I.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

NEMATOVA DILNOZA AZAMATOVNA

KORXONALARDA ASOSIY VOSITALARNING BUXGALTERIYA HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

UDK: 657.6:006.35-048.32(575.1)

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам

Content of dissertation the abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on economical sciences

Nematova Dilnoza Azamatovna
Korxonalarda asosiy vositalarning buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish.....3

Нематова Дилноза Азаматовна
Совершенствование бухгалтерского учета основных средств на предприятиях на основе международных стандартов.....29

Nematova Dilnoza Azamatovna
Improving the accounting of fixed assets in enterprises based on international standards.....57

E'lon qilingan ishlar ro'yxati
Список опубликованных работ
List of published works.....61

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.I.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

NEMATOVA DILNOZA AZAMATOVNA

KORXONALARDA ASOSIY VOSITALARNING BUXGALTERIYA HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Iqt3300 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand iqtisodiyot va servis institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.sies.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim tarmog'ida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Tashnazarov Samiddin Nizamovich** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Maxmudov Azamat Normurodovich** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
	Ibragimov Abdugapur Karimovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Qarshi davlat texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti huzuridagi ilmiy dararjalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.I.27.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "____" _____ kuni soat ____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 140100, Samarqand shahar, Amir Temur ko'chasi, 9-uy. Tel.: (99866) 233-19-84; Faks: (99866) 231-12-53; E-mail: sies_info@edu.uz.

Dissertatsiya ishi bilan Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatdan o'tgan). Manzil: 140100, Samarqand shahar, Amir Temur ko'chasi, 9-uy. Tel.: (99866) 233-19-84; faks: (99866) 231-12-53; E-mail: sies_info@edu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "____" _____kuni tarqatildi.

(2026-yil "____" _____ dagi ____ raqamli reyestr bayonnomasi).

M.E.Po'latov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sh.O.Kuvandikov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

M.T.Alimova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotining rivojlanishida barcha real sektorlarning moddiy-texnika bazasini tubdan yaxshilanishi asosiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Jahon bankining 2024-yil hisoboti ma’lumotlari bo‘yicha “dunyoda sotib olingan jami aktivlarning umumiy qiymati 2020-yil 184 666 mln AQSh dollari, 2024-yilda esa 220 014 mln AQSh dollarini tashkil qilgan”[1]. Bundan ko‘rinib turibdiki iqtisodiyotning tadrijiy rivojlanishi korxonalarda asosiy vositalarni zamonaviylashtirish hamda texnologik jihatdan yangilab borishni taqozo qiladi. Bu esa ko‘p jihatdan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda asosiy vositalar va ularni eskirishini to‘g‘ri hisobga olish hamda hisobotlarni xalqaro darajada muvofiqlashtirish, shuningdek ular yuzasidan o‘tkaziladigan auditni optimal variantda tashkil etishga bog‘liqdir.

Jahonda Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) joriy etilishi asosiy vositalar hisobini samarali tashkil etish, asosiy vositalar qiymati, foydalanishi va harakati bilan bog’liq axborotlarni yagona tartibga keltirish, haqqoniy qiymatda baholash tartiblarini takomillashtirish yo’nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda. Asosiy vositalarnining tan olinishi, hisobda yuritilishi hamda eskirishini hisoblash usullari barcha mamlakatlar uchun umumiy qilib belgilandi. Lekin, ushbu erishilgan natijalarning rivojlanayotgan mamlakatlarda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar amaliyotiga joriy qilinishi to‘liq amalga oshirilgan emas. Ammo, shunga qaramay asosiy vositalarning kirimi, chiqimi, boshlang’ich qiymati hamda tugatish qiymatini haqqoniy baholash, ijaraga berilishi, hisobotlarda shaffof aks ettirish muammolari hanuzgacha dolzarb bo’lib qolmoqda.

O‘zbekistonda Qimmatli qog‘ozlari fond birjasining listingiga kiritilgan va ommaviy savdolarga chiqariladigan (Publicly Traded Entity) tashkilotlar, tijorat banklari, sug‘urta tashkilotlari, birjalar, jamoat ahamiyatidagi tashkilotlarda MHXSlar asosida moliyaviy hisobot tuzish amaliyoti joriy etildi. Asosiy vositalarni xalqaro standartlarga muvofiq ta’rifi, haqqoniy qiymatda baholash, tasniflanishi holati, yangilanganlik darajasi, ularga eskirish hisoblash, sifati va ularning samaradorligi kabi ko‘rsatkichlar shakllantirishning yangi tartibini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Milliy statistika qo’mitasi ma’lumotlariga ko’ra, “2025-yil yanvar–dekabr oylarida iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirishga barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan jami 591,1 trln so’m asosiy kapitalga investitsiyalar o’zlashtirildi. Mazkur ko’rsatkich 2024-yilga nisbatan 10,5 foizga oshgan**.** Shuningdek, hisobot davrida yangi asosiy fondlarni barpo etishga yo’naltirilgan xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi 33,5 mlrd AQSH dollarini yoki 422,1 trln so’mni tashkil etdi”[2]. Ushbu holatlar asosiy vositalar hisobini xalqaro darajada tashkil etishni toqozo etmoqda.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son “O’zbekiston - 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot”

[1] https://www.vsemirnyjbank.org/ru/about/annual-report

[2] https://stat.uz/en/press-center/news-of-committee/66507-2025-jilda-asosij-kapitalga-investitsiyalar-591-1-trln-s-mga-etdi-4?utm_source

yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida", 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" Davlat dasturi to'g'risida, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son ""O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2021-yil 4-avgustdagi PQ-5210-son "Auditorlarni sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2025-yil 15-sentabrdagi PQ-282-son "Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari hamda mazkur sohaga oid bo'lgan boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishga mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi[3].

Tadqiqotning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Korxonalarning asosiy vositalar hisobini amaldagi xalqaro va milliy standartlar asosida tashkil qilish tartiblari AQSh, Buyuk Britaniya, rossiyalik olimlardan Ya.V.Sokolov, K.Drury, T.Yu.Drujilovskaya, B.Nidlz, Frenk Vud, Ch.T.Xorngren, R.Hermanson va boshqa olimlar [4] hamda mamlakatimiz olimlaridan A.Z.Avlakulov, A.I.Aliqulov, B.F.Boronov, R.D.Dusmuradov, J.R.Zaynalov, A.K.Ibragimov, I.N.Ismanov, N.F.Karimov, M.B.Kalonov, U.U.Kostayev, A.N.Maxmudov, M.Matkarimov, A.Nazarov, A.X.Pardayev, M.Q.Pardayev, M.E.Po'latov, G.M.Raximova, N.K.Rizayev, S.N.Tashnazarov, M.J.Temirxanova, K.B.Urazov, N.Sh.Xajimurodov, Sh.T.Ergasheva, Z.B.Eshpulatova, Z.N.Qurbanov, K.R.Hotamov [5] qalamiga mansub ilmiy ishlar, darsliklar, o'quv va amaliy

---

[3] https://www.lex.uz

[4] Я.В.Соколов. Основы теории бухгалтерского учета. — Москва: Финансы и статистика, 2003. — 496 с. Management and Cost Accounting. 10th Edition Colin Drury Publisher: Annabel Ainscow https://www.pdfdrive.com/management-and-cost-accounting-e183857367.html; Т.Ю.Дружиловская, Бухгалтерский учет в системе международных стандартов финансовой отчетности : учебник для вузов / Т. — Москва : КноРус, 2021. — 291 с. Б.Нидлз и др. Принципы бухгалтерского учета/ Б.Нидлз, Х.Андерсон, Д.Колдуэлл – М.: Финансы и статистика. 2003. -496 с.; Френк Вуд. Бухгалтерский учет для предпринимателей. М.: ООО Аскери, 2006г.; Horngren's Cost Accounting. Harvard University Madhav V. Rajan Stanford University. 2017.pdf; Hermanson, H.Roger Accounting: a business perspective/Roger H.Hermanson, James Don Edwards, W.Michael Maher. 6th ed., Irwin, Printed in the USA, 2009. 926 p.

[5] А.З.Авлакулов Молиявий натижалар ҳисоби ва аудити методологиясини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати.Т.: 2019.71-б.; A.I.Aliqulov Xarajatlar hisobi va tahlilining nazariy hamda amaliy masalalari. Monografiya. – T.: Fan va texnologiya, 2011. – 188-b.; Б.Ф.Боронов Корхоналар молиявий активлари ҳисоби ва ҳисоботини халқаро стандартларга мувофиқлаштириш. Монография. – Самарқанд. "Матбаа нашриёти": 2020 й. -154 б.; Р.Д.Дусмуратов Реформы бухгалтерского учета в Узбекистане: опыт, проблемы и перспективы https://cyberleninka.ru/article/n/reforma-buhgalterskogo-ucheta-v-uzbekistane-opyt-problemy-i-perspektivy/viewer.; Ж.Р.Зайналов и др. Рыночные трансформации: новые бизнес-моделиб инновационные технологииб практика решений. Издательство LSP. 2021; A.K.Ibragimov. Ways to apply international financial reporting standards to islamic banking systems /The 1st

qo‘llanmalarda o‘z aksini topgan. Biroq, ushbu ishlarda asosiy vositalar qiymatini xalqaro standartlarga muvofiq bozor baholarida baholash, hisob va hisobotda atroflicha aks ettirish, asosiy vositalarni davomiy va qayta baholash, moliyaviy hisobotlarning axborot imkoniyatlarini kengaytirish yo‘llari chuqur tadqiq etilmagan. Aynan shular va asosiy vositalar hisobining milliy iqtisodiyotimiz xususiyatlariga xos boshqa muammolari mazkur tadqiqotning maqsadi va vazifalarini belgilash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Dissertatsiya mavzusining tadqiqot amalga oshiriladigan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya Samarqand iqtisodiyot va servis instituti ilmiy-tadqiqot ishlari “Innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmat ko’rsatish sohasi tarmoqlarini rivojlantirishning nazariy va amaliy muammolari” mavzusi rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi korxonalarda asosiy vositalar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: “ko’chmas mulk, plant, mashina va asbob-uskunalar”, “uzoq muddatli moddiy aktivlar”, “oborotdan tashqari aktivlar”, “asosiy vositalar” kabi tushunchalariga berilgan ta’riflarni tadqiq qilish asosida takomillashgan mualliflik ta’riflarini ishlab chiqish;

International scientific and practical conference “European scientific discussions” (November 28-30, 2020) Potere della ragione Editore, Rome, Italy. 2020. 776 p; И.Н.Исманов. Некоторые вопросы признания, оценки и учета долгосрочных активов //Журнал Евразийский Союз ученых. Номер 4-7 (73) С.36-39; Н.Ф.Каримов Тижорат банкларида ички аудитни ташкил қилиш ва унинг услубиётини такомиллаштириш муаммолари: Дис. автореф. ... иқт. фан. д-ри. – Т.: 2007. М.Б.Калонов, М.Ш.Маматқулов Даромадлар ва харажатлар ҳисоби услубиётини такомиллаштириш. Монография. – Т.: Iqtisod-moliya, 2019 йил. – 254 бет; У.У.Костаев Стратегик бошқарув ҳисоби методологиясини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари доктори (Doctor of Science) диссертацияси автореферати. Тошкент шаҳри – 2020 йил //https://drive.google.com/file/d/1vziZ_bYdpZ7A7MLyMg7A9J38y58j_9mZ/view?pli=1; A.N.Maxmudov Yengil sanoat korxonalarida tannarx hisobi va auditnitakomillashtirish. Monografiya. T.: “Innovatsion rivojlanish nashryot-matbaa uyi”, 2023,236 bet; D.Matkarimov «Moliyaviy hisob va hisobotni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida takomillashtirish»//i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoref. – T.: TMI, 2019. A.K.Nazarov Ko‘chmas mulk ob’ektlarining buxgalteriya hisobi va soliqqa tortishni takomillashtirish. //i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. Avtoref – T.: 2021. – B. 44.; А.Х.Пардаев, З.А.Пардаева Бошқарув ҳисоби. Дарслик. -Т.: «Иқтисод-Молия». 2019 й. -538 б.; М.Қ.Пардаев ва б. Таълим хизматлари сифати ва самарадорлигини оширишда синергетик самара ва таълим технологияларини такомиллаштириш имкониятлари. // Таджикистон: экономика и управление (Экономические науки) 2023. ½-сон. – 131-142 бетлар.; G.M.Raximova Asosiy vositalar hisobi metodologiyasini takomillashtirish. Иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати.Т.: 2024. 71-б.; Н.К.Ризаев, К.Р.Ҳотамов Ҳисоб сиёсатини шакллантиришда хорижий тажрибадан фойдаланиш зарурияти. Journal of international finance and accounting. issue 1. february 2021. issn: 2181-1016.; С.Н.Ташназаров Молиявий бухгалтерия ҳисоби 2 [Матн]: дарслик / Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти – Самарқанд.: “STEP-SEL” МЧЖ нашриёти, 2023 - 750 бет.; М.Ж.Темирханова Туризм корхоналарида молиявий натижаларни халқаро стандартлар асосида такомиллаштириш. http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/10_Temirkhanova.pdf; К.Б.Уразов, М.Э.Пўлатов Бухгалтерия ҳисоби. Дарслик. –Т.: «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи», 2020, 564 бет; Н.Ш.Хажимуратов Молиявий ҳисобот аудити методологиясини такомиллаштириш» мавзусидаги иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Т. 2021 й. 36-б.; Ш.Т.Эргашева Совершенствование методологии бухгалтерского учета хозяйствующих субъектов в республике Узбекистан. Диссертация на соискание ученой степени доктора экономических наук Ташкент –2025; З.Б.Эшпулатова “Иқтисодий субъектларда даромадлар ҳисоби методологиясини такомиллаштириш (ҳалқаро стандартлар асосида)”. Samarqand: “STAR-SEL” MCHJ. Nashriyot – matbaa bo‘limi, 2023.-150 bet.; B.A.Hasanov va boshqalar. Buxgalteriya hisobi. Darslik.- T.: ”Iqtisodiyot dunyosi”, 2021. 992 bet.; З.Н.Қурбонов Креатив ҳисобнинг назарий масалалари //Илғор иқтисодиёт ва педогогик технологиялар. 2025 й. 1-сон. 174-179 б.; K.R.Hotamov Bilvosita soliqlar hisobi va tahlilini takomillashtirish. Monografiya.-T: Moliya, 2016. -168 b.

asosiy vositalarni tan olish, baholash tartiblarini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish;

“ko’chmas mulk, plant, mashina va asbob-uskunalar”ni xalqaro standartlarga muvofiq hisobga olishga doir ishchi buxgalteriya schotlarini ochish va buxgalteriya yozuvlari ishlanmasini taklif etish;

asosiy vositalar davomiy xarajatlar hisobini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish;

hisob va hisobotning asosiy vositalar bo‘yicha real axborot berish qobiliyati va axborot cheklovlarini, ulardagi xatoliklar turlarini aniqlash, ularni tuzatish, axborotlar ishonchliligi va analitikligini oshirishga oid tavsiyalar ishlab chiqish;

korxonada asosiy vositalarni xalqaro standartlarga muvofiq qayta baholanishi, qadrsizlanishi va hisobot masalalarini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish.

Tadqiqot ob’ekti bo‘lib barcha sohalarda faoliyat yuritayotgan turli tarmoq va sohalar sub’ektlari hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti bo‘lib asosiy vositalar, ular hisobini takomillashtirish bilan bog‘liq ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar majmui hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli tahlil, iqtisodiy-matematik usullar, hujjatlashtirish, qiymatni baholash va diskontlash, yoppa tekshirish va tanlab tekshirish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligini quyidagilar tashkil etadi:

xalqaro standartlar asosida “ko‘chmas mulk, plant (yirik mashinalar va mexanizmlar), mashina va asbob-uskunalar” tushunchasi ta’rifiga “bir davrdan ko’p vaqt davomida foydalanish ko’zda tutilgan”ligini inobatga olish hamda uning tarkibida “yirik mashinalar va mexanizmlar”ni alohida sinf sifatida ajratish, boshlang’ich qiymatini aniqlashda “joylashgan maydonni tiklanishining mo’ljaldagi qiymati”ni kiritish orqali takomillashtirilgan;

16-son BHXS “Asosiy vositalar” xalqaro standarti talablari asosida korxonalarning hisob siyosatiga 0130 – “Mashina va asbob uskunalar” schoti tarkibida 0131 – “Yirik mashina va mexanizmlar”, 0132 – “Boshqa mashina va asbob uskunalar”, 0133 – “Robotlar va boshqa sun’iy intellekt texnologiyalari” ishchi schotlarini hisob siyosatiga kiritish hamda yangi mazmundagi buxgalteriya yozuvlarini amalga oshirish taklif etilgan;

asosiy vositalar bo‘yicha kutilmagan xarajatlarning moliyaviy yukini kamaytirish va korxonaning moliyaviy barqarorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish, shuningdek asosiy vositalarni samarali foydalanish hamda ularning ishlash muddatini uzaytirish maqsadida joriy ta’mirlash xarajatlarning moliyaviy manbasini tashkil qilish uchun rezerv fondi yaratish tavsiya etilgan;

asosiy vositalarning qadrsizlanishini hisobga olish maqsadida 0291 – “Asosiy vositalarning qadrsizlanishi” schotini hisob siyosatiga kiritish orqali asosiy vositalarning qiymatini moliyaviy holat to’g’risidagi hisobotda balans qiymatida aks ettirish tartibi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

xalqaro standartlarga mos ravishda “ko’chmas mulk, plant, mashina va asbob-uskunalar” tushunchasining aniqlashtirilishi natijasida korxonalarda asosiy vositalarni hisobga olishning yagona va aniq tasnifi shakllantirildi va bu hisob ma’lumotlarining solishtiriluvchanligini oshirdi;

taklif etilgan asosiy vositalar schotlari orqali yer, binolar, yirik mashina va mexanizmlar, xususan uning tarkibida suv va havo sudalari, boshqa mashina va asbob uskunalar, robotlar va boshqa sun’iy intellekt texnologiyalari, transport vositalari, terib qo’yiladigan muhandislik uskunalari va ofis jihozlari kesimida alohida hisob yuritish imkoniyati paydo bo’ldi, bu esa boshqaruv qarorlarini qabul qilish sifatini oshirdi;

asosiy vositalarning qadrsizlanishi hisobini joriy etish orqali aktivlarning balans qiymatini haqqoniy aks ettirishga erishildi va moliyaviy hisobotlarning shaffofligi ta’minlandi;

ta’mirlash va texnik xizmat ko’rsatish uchun maqsadli fond tashkil etish natijasida korxonalarda favqulodda xarajatlarning moliyaviy yukini kamaytirish imkoniyati yaratildi;

taklif etilgan yondashuvlar natijasida xarajatlarni rejalashtirish, aktivlarni boshqarish va moliyaviy oqimlarni optimallashtirish imkoniyati kengayib, korxonalarning umumiy moliyaviy barqarorligi oshdi;

asosiy vositalar hisobini xalqaro standartlar asosida yuritish hamda investorlarga ishonchli va real moliyaviy ma’lumotlarni taqdim etish maqsadida hisob amaliyotiga “adolatli qiymat” tushunchasini joriy etish zarurligi asoslab berildi va buning natijasida asosiy vositalarning balans qiymati bilan ularning bozor qiymati o’rtasidagi tafovutni minimal darajaga keltirish imkoniyati yaratildi.

Olingan natijalarning ishonchliligi. Tadqiqot jarayonida O’zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo’mitasining statistik ma’lumotlaridan foydalanilganligi, qo‘llanilgan fundamental-nazariy yondashuvlar, usullar va nazariy ma’lumotlarning manbalardan olinganligi, “Samarqanddonmahsulotlari” AJ va “Hudud gaz ta’minoti” AJlarning hisob siyosati, moliyaviy hisobotlar, statistik ma’lumotlariga asoslanganligi, mamlakatimiz va xorijlik olimlarning ilmiy ishlarida keltirilgan ma’lumotlari, ilmiy-uslubiy va amaliy yondashuvlarning tadqiqot maqsadi hamda vazifalariga mosligi, tahlil uchun olingan ma’lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, tajriba-sinov ishlari sohaning o’ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi me’yoriy-huquqiy hujjatlarga asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan takliflardan buxgalteriya hisobi metodologiyasi bo‘yicha darsliklarda hamda me’yoriy-huquqiy hujjatlarda foydalanish, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda asosiy vositalar hisobini yuritishda xalqaro standartlar asosida takomillashtirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan tavsiyalardan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda asosiy vositalarni MHXS asosida hisobini yuritish, asosiy vositalarni haqqoniy qiymatida aks ettirish, ilmiy natijalardan sohaga oid

me’yoriy-huquqiy hujjatlarni, ilmiy ishlanmalar turli tarmoq va soha sub’ektlarida asosiy vositalar hisobining nazariy, tashkiliy va metodologik asoslarini yanada takomillashtirishga, ilmiy ishlanmalardan oliy ta’lim tashkilotlari o‘quv rejalarida ko‘zda tutilgan “Buxgalteriya hisobi” va “Moliyaviy hisob” kabi fanlarni o‘rgatishda manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Korxonalarda asosiy vositalarning buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

xalqaro standartlar asosida “ko‘chmas mulk, plant (yirik mashinalar va mexanizmlar), mashina va asbob-uskunalar” tushunchasi ta’rifiga “bir davrdan ko’p vaqt davomida foydalanish ko’zda tutilgan”ligini inobatga olish hamda uning tarkibida “yirik mashinalar va mexanizmlar”ni alohida sinf sifatida ajratish, boshlang’ich qiymatini aniqlashda “joylashgan maydonni tiklanishining mo’ljaldagi qiymati”ni kiritish orqali takomillashtirish bo’yicha taklifi “Moliyaviy hisob asoslari” darsligiga joriy etilgan (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Kengashining 2025-yil 31-oktabrdagi 3-son qarori). Natijada, asosiy vositalarning iqtisodiy mazmuni aniqlashtirilgan hamda uning buxgalteriya ob’ekti sifatida ta’rifi, tarkibi va tan olish mezonlarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishga erishilgan;

16-son BHXS “Asosiy vositalar” xalqaro standarti talablari asosida korxonalarning hisob siyosatiga 0130 – “Mashina va asbob uskunalar” schoti tarkibida 0131 – “Yirik mashina va mexanizmlar”, 0132 – “Boshqa mashina va asbob uskunalar”, 0133 – “Robotlar va boshqa sun’iy intellekt texnologiyalari” ishchi schotlarini hisob siyosatiga kiritish hamda yangi mazmundagi buxgalteriya yozuvlarini amalga oshirish bo’yicha taklifi “Samarqanddonmahsulotlari” AJ va “Hudud gaz ta’minoti” AJning hisob siyosatiga joriy qilingan (“Samarqanddonmahsulotlari” AJning 2025-yil 28-noyabrdagi 5094-son hamda “Hudud gaz ta’minoti” AJning 2025-yil 1-dekabrdagi 186/ka-son ma’lumotnomalari). Ushbu taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida buxgalteriya hisobida asosiy vositalar to’g’risida axborotlar qamrovini kengaytirish asosida axborotlar tarkibi va sifatini xalqaro investorlar talablariga muvofiqlashtirish hamda boshqaruv qarorlari samaradorligini oshirishga erishilgan;

asosiy vositalar bo‘yicha kutilmagan xarajatlarning moliyaviy yukini kamaytirish va korxonaning moliyaviy barqarorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish, shuningdek asosiy vositalarni samarali foydalanish hamda ularning ishlash muddatini uzaytirish maqsadida joriy ta’mirlash xarajatlarning moliyaviy manbasini tashkil qilish uchun rezerv fondi yaratish bo’yicha tavsiyasi “Samarqanddonmahsulotlari” AJ va “Hudud gaz ta’minoti” AJning hisob siyosatiga joriy qilingan (“Samarqanddonmahsulotlari” AJ ning 2025-yil 28-noyabrdagi 5094-son hamda “Hudud gaz ta’minoti” Ajning 2025-yil 1-ekabrdagi186/ka-son ma’lumotnomalari). Ushbu taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida asosiy vositalar bo‘yicha davomiy xarajatlarni davrlar bo’yicha tekis taqsimlash, kutilmagan xarajatlarning moliyaviy yukini qisqartirish hamda

korxonaning moliyaviy barqarorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish imkoniyati yuzaga kelgan;

asosiy vositalarning qadrsizlanishini hisobga olish maqsadida 0291 – “Asosiy vositalarning qadrsizlanishi” schotini hisob siyosatiga kiritish orqali asosiy vositalarning qiymatini moliyaviy holat to’g’risidagi hisobotda balans qiymatida aks ettirish bo’yicha taklifi “Samarqanddonmahsulotlari” AJ va “Hudud gaz ta’minoti” AJning hisob siyosatiga joriy qilingan (“Samarqanddonmahsulotlari” AJ ning 2025-yil 28-noyabrdagi 5094-son hamda “Hudud gaz ta’minoti” Ajning 2025-yil 1-dekabrdagi186/ka-son ma’lumotnomalari). Ushbu taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida asosiy vositalarni buxgalteriya balansida haqqoniy qiymatda aks ettirish hamda moliyaviy natijalarni to’g’ri shakllantirish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta respublika va 3 ta xalqaro miqyosida o‘tkazilgan – jami 7 ta ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 20 ta ilmiy ish, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo‘yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, shundan 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tarkib topgan. Dissertatsiya hajmi 122 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va ahamiyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, ob’ekti va predmeti tavsiflangan, milliy iqtisodiyot rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, tadqiqot ishining ilmiy yangiligi va amaliy natijalari keltirilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati bayon etilgan, natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr qilingan ishlar soni va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Korxonalarda asosiy vositalar hisobining ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlanib, korxonalarda asosiy vositalarning buxgalteriya elementi sifatidagi nazariy va tasnifiy asoslari, asosiy vositalarni xalqaro standartlar bo‘yicha tan olish mezonlari va tarkibi masalalari tadqiq qilingan.

Amalga kiritilgan 16-son BHXS “Ko’chmas mulk, plant, mashina va asbob uskunalar” standarti asosida asosiy vositalarni tan olish, baholash va hisobotlarda aks ettirishning yangi tartibini joriy etishni ko‘zda tutadi. Shu bois, ushbu standart talablariga muvofiq hisob-kitoblarni tashkil etish, hisobotlarda asosiy vositalar to‘g‘risida shaffof axborotlarni aks ettirish, xalqaro investorlarga ularga tushunarli bo‘lgan vositalarda, ya’ni eng sinalgan va samarali usul hamda uslublar, tan olish va baholash mezonlari, xalqaro qoida va prinsiplardan foydalangan holda korxonalarning asosiy vositalari, eskirishi hamda qayta baholanishi to‘g‘risidagi

ishonchli, uyg‘un va taqqoslanuvchi moliyaviy axborotlarni taqdim etish metodologiyasini joriy etish barcha mamlakatlar, ayniqsa BHXS va MHXSlarni birinchi marta qo‘llayotgan mamlakatlar uchun o‘ta dolzarb masaladir.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, so‘nggi yillarda xalqaro buxgalteriya hisob standartlariga (IFRS/IAS) bosqichma-bosqich o‘tish amalga oshirilmoqda. Quyidagi statistik ma’lumotlar 2020–2025-yillarda davlat tashkilotlari va yirik korxonalar kesimida xalqaro standartlarni joriy etish jarayonini aks ettiradi (1-jadval).

1-jadval.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etishga doir ma’lumotlar[6]

Yil	Xalqaro standartga o‘tgan tashkilotlar soni	IFRS bo‘yicha hisobot topshirganlar (%)	Moslashtirilgan aktlar soni
2020	35	5%	15
2021	72	11%	28
2022	130	18%	54
2023	215	29%	91
2024	310	41%	135
2025	430	55%	179

Quyidagi diagrammada 2024-yilda O‘zbekistonning turli hududlari va sohalari kesimida xalqaro buxgalteriya standartlariga o‘tgan tashkilotlar soni ko‘rsatilgan.

Bu ma’lumotlar asosida qaysi soha va hududlarda xalqaro buxgalteriya standartlariga o‘tish faolligi yuqoriligi aniqlanadi. Xalqaro buxgalteriya standartlariga o‘tish: Hududlar va sohalar kesimida statistik tahlilini ko‘rib chiqsak (1-rasm).



1-rasm. Xalqaro buxgalteriya standartlariga o‘tish: Hududlar va sohalar kesimida[7]

[6] Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

[7] O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi statistik ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

16-son BHXS bo‘yicha aktivlarni tan olish mezonlari korxona faoliyatida asosiy vositalarni to‘g‘ri hisobga olishda muhim ahamiyatga ega. Amaliy misollar va grafik ko‘rinish ularning qo‘llanilishini yanada aniqroq ko‘rsatib beradi.

Mamlakatimizda asosiy vositalar hisobini BHXS va MHXSlarga muvofiqlashtirish borasida muayyan natijalarga erishildi. 2025-yildan e’tiboran Qimmatli qog‘ozlar fond birjasining listingiga kiritilgan va ommaviy savdolarga chiqariladigan (Publicly Traded Entity) tashkilotlar, tijorat banklari, sug‘urta tashkilotlari, birjalar, jamoat ahamiyatidagi tashkilotlar va ixtiyoriylik asosida boshqa korxonalarga MHXSlar asosida moliyaviy hisobot tuzish, ularni xalqaro auditdan o‘tkazish va nashr ettirish tartiblari amaliyotga joriy etildi. Mazkur vazifalarning samarali bajarilishini ta’minlashda xalqaro standartlar talablaridan kelib chiqib xorijiy investorlar va boshqa axborot foydalanuvchilari talablariga mos holda asosiy vositalar hisobi hamda asosiy vositalar to‘g‘risidagi hisobotni tubdan takomillashtirish yuzasidan ilmiy izlanishlarni olib borishni taqozo etadi. Shu bois, asosiy vositalar ko‘rsatkichlarini hisobotning elementi sifatida tavsiflash va xalqaro standartlarga muvofiq tarkibiy qismlarini belgilash dolzarb masala hisoblanadi. Asosiy vositalarni buxgalteriya hisobida tan olinishi, baholanishi, amortizatsiyasi bo‘yicha ko‘plab iqtisodchi olimlar tadqiqotlar olib borganlar. Iqtisodiy amaliyotda “asosiy vosita” atamasi ko‘pincha “asosiy fondlar” va “asosiy kapital” kabi tushunchalar bilan tenglashtiriladi va oqibatda turli tushunchalarni keltirib chiqaradi. Iqtisodchi olimlar tomonidan asosiy vositalar har doim bahs-munozarali bo‘lib kelgan. Bir turdagi atamalar turli xil sohalarda turli xil ma’nolarda qo‘llanilgan. Iqtisod sohasidagi olimlarning qarashlariga ko‘ra asosiy kapital tushunchasi ilgari surilib, uning tarkibiga moddiy va nomoddiy aktivlar, uzoq muddatli moliyaviy qo‘yilmalar hamda tugallanmagan qurilishlarni kiritishgan. Tahlil sohasidagi olimlar esa asosiy fondlar tushunchasini ilgari surib, uning tarkibiga moddiy va nomoddiy aktivlarni inobatga olishgan. Buxgalteriya va audit sohasidagi olimlar esa asosiy vositalar tushunchasini ilgari surib uning tarkibiga faqat moddiy aktivlarni kiritishgan.

Iqtisodchi olimlarning ilmiy-uslubiy asarlari sharhi shuni ko‘rsatadiki, ular tomonidan asosiy vositalar hisobi va ulardan foydalanishni tahlil qilishga bag‘ishlangan bir-biriga yaqin bo‘lgan yondashuvlarni e’tirof etishgan. Hozirgi amaliyotimizda qo‘llanilib kelinayotgan “Ko’chmas mulk (yer, bino), plant hamda mashina va asbob-uskunalar” tushunchasi “uzoq muddatli moddiy aktivlar”larning mohiyati va aniqliklarini o‘zida mujassamlantirishi kerak. Xorijiy adabiyotlarda “Oborotdan tashqari aktivlar”, “uzoq muddatli moddiy aktivlar” atamalaridan foydalanishgan.

Olimlarning fikrlariga qo‘shilgan holda hamda bugun zamon talabidan kelib chiqib, xalqaro standartlarni o‘rganib, ko‘chmas mulk, plant, mashina va asbob-uskunalar tushunchasiga quyidagicha ta’rif berdik: “**Ko‘chmas mulk, plant, mashina va asbob-uskunalar** deganda, korxona tomonidan ishlab chiqarish jarayonida yoki tovarlarni jo‘natishda yoki xizmatlarni ko‘rsatishda yoki ma’muriy maqsadlarda foydalanilishi davomida o’z qiymatini bo’lib-bo’lib mahsulot (ish va xizmatlar) tannarxiga yoki davr xarajatlariga o’tkazadigan hamda bir davrdan ko‘p vaqt davomida foydalanish ko‘zda tutiladigan moddiy aktivlarga aytiladi”.

Ko‘chmas mulk, plant, mashina va asbob-uskunalardan korxona tomonidan investitsiyaviy ko‘chmas mulk va sotish uchun ushlab turiladigan aktivlarning chegirilgan qismiga aytiladi.

Olimlarning “asosiy vositalar”ga bergan ta’riflari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval.

Iqtisodchi olimlarning “Asosiy vositalar”ga bergan ta’riflari[8]

№	Olimlarning ismi-sharifi	“Asosiy vositalar” atamasiga ta’riflar
1.	Ayupova L.A.[9]	Asosiy vositalar ishlab chiqarish va moddiy qiymatliklar ishlab chiqarish jarayonida faoliyat ko’rsatib, o’z moddiy shaklini saqlab, qiymatini amortizatsiya shaklida ishlab chiqarish mahsulotlariga o’tkazadi.
2.	Garbuzov V.F.[10]	Asosiy vositalar – mavjud asosiy fondlarga qo’yilgan (kiritilgan) pul mablag’laridir.
3.	Ismanov I.N.[11]	Asosiy vositalar – tabiiy shaklini saqlagan holda qiymatini amortizatsiya orqali mahsulot/xizmatlarga o‘tkazadigan moddiy aktivlar.
4.	Qudbiyev D.[12]	Asosiy vositalar – uzoq muddat ishlatiladigan, moddiy shaklga ega va korxonaga iqtisodiy foyda keltiradigan aktivlar.
5.	Qurakov L.P.[13]	Asosiy vositalar – ishlab chiqarish va noishlab chiqarish maqsadlaridagi mehnat vositalari.
6.	Qurbanov Z.N.[14]	Asosiy vositalar – korxonaning ishlab chiqarish quvvatini ta’minlovchi, uzoq muddat davomida xizmat qiluvchi aktivlar (bino, inshoot, uskunalar) sifatida ta’riflanadi.
7.	Pizengols M.Z.[15]	Asosiy vositalar – inson o’z ehtiyojlarini qondirish maqsadida mehnat ob’ektlariga inson ta’sirini o’tkazuvchi fatida foydalaniladigan mehnat vositalaridir.
8.	Sklyarenko V.K., va b.[16]	Asosiy vositalar – uzoq muddat davomida ishlab chiqarish jarayonida faoliyat ko’rsatadigan, butun davr mobaynida o’z tabiiy va moddiy shaklini saqlab qoladigan va amortizatsiya to’lovlari shaklida eskiradigan mahsulotlarga o’z qiymatini qismlarga bo’lib o’tkazadigan ishlab chiqarish, moddiy va moddiy qiymatliklar majmui.
9.	Tashnazarov S.N.[17]	Mulk, mashina, asbob-uskunalar – tabiiy shaklini saqlagan holda qiymatini amortizatsiya yo‘li bilan qisman mahsulot, xizmatlarga o‘tkazuvchi moddiy aktivlar.
10.	Urazov K.B.[18]	Asosiy vositalar – korxona tomonidan uzoq muddat davomida xo’jalik faoliyatini yuritishda mahsulot ishlab chiqarish, ishlami bajarish yoki xizmatlar ko’rsatish jarayonida yoxud ma’muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish maqsadida foydalanish uchun tutib turiladigan moddiy aktivlar.

[8] Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

[9] Л.А.Аюпова Эволюция понятия основных средств в России. Л.А.Аюпова// В сборнике: Бухгалтерский учёт, анализ и аудит в современных условиях: Материалы Всероссийской заочной научно-практической конференции. - 2017. - С. 13-19.

[10] Финансово-кредитный словарь: [В 3 т.] / Гл. ред. В.Ф.Гарбузов 2- е изд. - М.: Финансы и статистика, Том-1 Т.: Мост. В.К.Сенчагов и до. 2005 г. - 900 с

[11] И.Н.Исманов Узок муддатли активларнинг бухгалтерия хисоби ва аудит методология сини такомиллаштириш масалалари: и.ф.д. илмий даражасини олиш учун дис. автореферат. Тошкент: БМА - 2009.- 33 б.

[12] Д.К.Кудбиев, Д.Д.Турсунова, Основные принципы бухгалтерского учёта основных средств, Бухгалтерский учет: достижения и научные перспективы XXI века, 87-93 стр.

[13] Л.П.Кураков Экономика: учебник для вузов / Л.П.Кураков, Г.Е ... (Darslik). Toshkent- “Innovatsion rivojlanish. nashriyot-matbaa uyi”, 23 мая 2024 г 450 страниц

[14] Z.N.Qurbanov, K.M.Misirov, Moliyaviy va boshqaruv hisobi, Darslik. *T.: “IQTISOD. MOLIYA, 749. 144-bet.*

[15] М.З.Пизенгольц Бухгалтерский учёт в сельском хозяйстве [Текст] / М. З. Пизенгольц. - М.: Инфра-М, 2014. - 520 с.

[16] В.К.Скляренко, В.М.Прудников Экономика предприятия, изд.2.Издательство: Инфра-М. 2019 г. 256 стр

[17] С.Н.Ташназаров Молиявий бухгалтерия ҳисоби 1 [Матн]: дарслик / Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти – Самарқанд.: “STEP-SEL” МЧЖ нашриёти, 2023 й ,463-535 бетлар.

[18] К.Б.Уразов, М.Э.Пўлатов. Бухгалтерия ҳисоби. Дарслик. –Т.: “Fan va texnologiyalar nashryot-matbaa uyi”, 2021. 136-177 бетлар.

Asosiy vositalar korxonalarning moddiy texnika bazasini tashkil etuvchi mehnat qurollari va vositalarini o‘z ichiga oladi. Ularga quyidagi jadvalda asosiy vositalarni guruhlarga ajratib olishimiz mumkin. Bunday guruhlarga ajratish asosiy vositalarni foydali xizmat muddatini aniqlashda ham muhim ro‘l o‘ynaydi.

3-jadval.

Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari asosida ko‘chmas mulk, plant, mashina va asbob-uskunalar guruhlari va tarkibi[19]

Asosiy vositalar guruhlari		**Asosiy vositalar tarkibi**
Mulk (property)	Yer	Yer va bino ostidagi yer
	Binolar	Zavod va sex binolari, ofis binolari, yotoqxonalar, uylar, mehmonxona binolari, restoran va oshxona binolari, ombor, laboratoriya, idora, garaj, o‘t o‘chirish deposi va shu kabi mehnat sharoitini yaratib beruvchi, tovar-moddiy boyliklar butligini ta’minlovchi ob’ektlar. Ekspluatatsiya qilish uchun zarur bo‘lgan barcha kommunikatsiyalar, ya’ni isitish, ventilyatsiya, suv va gaz ta’minoti, lift, yong‘inga qarshi va signalizatsiya qurilmalari, telefon aloqasi simlari tizimlari ham kiritiladi.
	Inshootlar	Ochiq ayvonlar, devorlar, suv minoralari, temir yo‘l shahobchalari, nasos stansiyalar, kanallar, suv havzalari, asfaltlangan yo‘llar va yo‘lkalar.
	Uzatish qurilmalari	Elektr liniyalar, gaz, suv, bug‘ o‘tkazuvchi quvurlar va boshqalar.
Yirik mashina va mexanizmlar (plant)	Yirik mashinalar va mexanizmlar	Yirik enengetik asbob-uskunalari, jumladan issiqlik va elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi generatorlar, transformatorlar, katta quvvatli dvigatellar, masalan neft va gaz sanoatidagi yirik mashinalar, adron kollayderlar, katta radio teleskoplar, katta kranlar, yirik ekskovatorlar, yirik samosvallar, tankerlar, mini zavodlar va boshqa yirik mexanizmlar
	Suv va havo sudalari	Suv kemalar, yaxtalar, havo sudalari, jumladan samaloyotlar
Boshqa mashina va asbob-uskunalar (equipment)	Mashina va asbob-uskunalar	Mahsulot ishlab chiqaradigan stanoklar, mashina va mexanizmlar, kichik dvigatellar, qozonlar, issiqlik pechlari, tikuv, yig‘uv, dazmollash, saralash mashinalari, kichik kranlar, kompressorlar, o‘lchov tarozilari, presslovchi, qisuvchi va boshqa texnologik funksiyalarni bajaruvchi asbob-uskunalar, uskunalar, gidravlik asbob-uskunalar, tibbiyot asbob-uskunalari, ustachilik asbob-uskunalari, texnologiyalar va boshqa mexanizmlar
	Robotlar va boshqa sun’iy intellekt texnologiyalari	Robototexnikalar, mashina va mexanizm ko’rinishidagi sun’iy intellekt texnologiyalari, zamonaviy innovatsion texnologiyalar
	Kompyuter va axborot texnolo-giyalari	Kompyuterlar va ularga o‘rnatiladigan periferiya qurilmalari (printer, skaner, modem va boshqalar).
	Transport vositalari	Yuk va odam tashuvchi avtomashinalar, vagonlar, parovozlar, teplovozlar, paroxodlar, tramvaylar, trolleybuslar, avtobuslar, pritseplar, samolyot va vertolyotlar, shuningdek, magistral truboprovodlar.
Ofis jihozlari va texnologiya lari	Ofis jihozlari	Ofis mebelleri, shkaflar, stol va stullar komplekti, doskalar, seyflar, yozuv mashinkalari, faks, nusxa ko‘chirish apparatlari, uyali aloqa vositalari va boshqalar
	Ofis va boshqaruv texnologiyalari	Boshqaruv texnologiyalari, boshqaruvda qo’llaniladigan moddiy bo’lgan sun’iy intellekt texnologiyalari, zamonaviy innovatsion texnologiyalar
Muhandislik asbob uskunalari	Bino va sanoat liniyalarining yagona funksional tizimga bog’laydigan terib qo’yiladigan muhandislik asbob uskunalari,	

[19] Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

16-son xalqaro standartiga “Asosiy vositalar” deb nom berilib uning tarkibiga faqat moddiy aktivlarni kiritishgan. 0100-guruh schotlari nomlanishini 16-son BHXS (IAS 16) talablari asosida qayta standartlashtirish buxgalteriya hisobi ma’lumotlarining iqtisodiy mazmuni va real qiymatini aniq aks ettirish, moliyaviy hisobotlarning axborotlilik darajasini oshirish hamda ularning xalqaro formatda talqin qilinishini ta’minlaydi.

4-jadval.

BHMS va MHXS bo‘yicha taqqoslash hamda taklif etiladigan yangi ishchi schotlar tarkibi[20]

Schot raqami	**21-**BHMS **amaldagi nomi**	**16-BHXS asosida tasnifi**	**Taklif etilgan yangi schotlar**
0110	Yer	Yer va bino ostidagi yer uchastkalari	O’zgartirishsiz qoldirish
0120	Binolar, inshootlar va uzatuvchi moslamalar	Bino va inshootlar	O’zgartirishsiz qoldirish
0130	Mashina va asbob-uskunalar	Machinery / Equipment as PPE	0130 – “Mashina va asbob uskunalar”: 0131 – “Yirik mashina va mexanizmlar”; 0132 – “Boshqa mashina va asbob uskunalar”; 0133 – “Robotlar va boshqa sun’iy intellekt texnologiyalari”
0140	Mebel va ofis jihozlari	Furniture & Fixtures / Tools	O’zgartirishsiz qoldirish
0150	Kompyuter jihozlari va hisoblash texnikasi	IT & Computer equipment	O’zgartirishsiz qoldirish
0160	Transport vositalari	Transport equipment	O’zgartirishsiz qoldirish
0170	Ishchi va mahsuldor hayvonlar	Alohida biologik aktivlar tarkibida	Alohida biologik aktivlar tarkibida
0180	Ko’p yillik o’simliklar	Alohida biologik aktivlar tarkibida	Ko‘chmas mulk, plant, mashina va asbob-uskunalar tarkibida emas alohida biologik aktiv
0190	Boshqa asosiy vositalar	Other tangible fixed assets	O’zgartirishsiz qoldirish

Ushbu jadval ma’lumotlaridan xulosa qilish mumkinki, bugungi kunda amalda bo’lgan schotlar rejasida asosiy vositalarning tarkibi xalqaro standartlarga to’liq muvofiq kelmaydi. Shu bois, tadqiqotlar asosida 0130 – “Mashina va asbob uskunalar” schoti tarkibida 0131 – “Yirik mashina va mexanizmlar”; 0132 –

[20] Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

“Boshqa mashina va asbob uskunalar”; 0133 – “Robotlar va boshqa sun’iy intellekt texnologiyalari” ishchi schotlarni ochish tavsiya etildi. Bundan tashqari ishchi va mahsuldor hayvonlar, ko’p yillik o’simliklarni biologik aktivlarni hisobga oluvchi schotlar tarkibiga o’tkazish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ushbu taklif etilgan schotlarga oid bo’lgan asosiy buxgalteriya yozuvlari ishlanmasini quyidagi 5-jadvalda keltiramiz.

5-jadval.

“Samarqanddonmahsulotlari” AJ korxonasining 2025-yil faoliyati bilan bog’liq asosiy vositalarni buxgalteriya schotlarida aks ettirish tartibi (ming so’m)[21]

T/r	Moliyaviy iqtisodiy operatsiyalar va jarayonlar	Debet	Kredit	Summa
1.	Korxona tomonidan yirik mashina va mexanizmlar xarid qilinganda va o’rnatilganda	0131	0820	-
2.	Korxona tomonidan boshqa mashina va asbob-uskunalar xarid qilindi va o’rnatildi	0132	0820	56 896,12
3.	Korxonaning 2025-yil buxgalteriya schotlari ma’lumotlari bo’yicha robotlashgan ishlab chiqarish uskunalari sotib olindi. Ushbu qurilmalarni tashish va korxonaga o’rnatish uchun qo’shimcha xarajatlar qilindi. Ushbu o’rnatilgan qurilmalar korxonada asosiy vositalar deb tan olindi va foydalanishga topshirildi (900 560 000 + 45 023 000).	0820 0820 0133	6010 6990 0820	900 560,00 45 023,00 945 583,00
4.	Korxona tomonidan boshqa mashina va asbob-uskunalar hisobdan chiqarilganda ularning boshlang’ich tan olingan summasiga	9220	0132	89 400,60

Ushbu buxgalteriya ishlanmalari xalqaro standartlarga muvofiq asosiy vositalarning sinflari holati va ularning harakati to’g’risida batafsil ma’lumotlarni shakllantirishga hamda buxgalteriya hisobining axborot qamrovini kengaytirishga, shuningdek hisobotlarning sifatini oshirishga xizmat qiladi. Taqdim etilgan hisob tizimi investorlar, banklar va auditorlar uchun hisobotlarning o‘qilishi va tahlilini sezilarli darajada yengillashtiradi. Ma’lumotlarning nomlanishi emas, balki mazmuni bo‘yicha talqin qilinishi bilan moliyaviy ko‘rsatkichlarning haqqoniyligi ta’minlanadi. Schotlarning MHXSlari talablariga muvofiq qayta nomlanishi buxgalteriya hisobi ma’lumotlarining ishonchliligi va iqtisodiy tahliliy qiymatini oshiradi, aktivlarning haqiqiy bahosini aks ettiradi va korxonaning moliyaviy barqarorligi hamda investitsion jozibadorligi to‘g‘risida aniqroq tasavvur beradi. Ushbu yondashuv xalqaro amaliyot bilan uyg‘unlashgan holda moliyaviy hisobotlarning sifati va auditga tayyorlik darajasini yuqori bosqichga ko‘taradi.

Shunday ekan Moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarini amaliyotga joriy etilishi, hisob va tahlilning uslubiy asoslarini nazariy va amaliy jihatdan o‘rganish muhim hisoblanadi. Tadqiqot ob’ekti sifatida ta’minot, ishlab chiqarish va realizatsiya bosqichlari bevosita asosiy vositalardan foydalanuvchi tarmoq va

[21] Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

sohalarda faoliyat olib borayotgan “Samarqanddonmahsulotlari” AJ va “Hudud gaz ta’minoti” AJini tanladik. Ushbu ikkala korxonada ham asosiy vositalarni hisobini yuritishda quyidagi muammoli masalalar aniqlandi:

ushbu xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda xizmat ko‘rsatish va mahsulot ishlab chiqarishda bevosita asosiy vositalar ishtirok etadi;

xo‘jalik yurituvchi sub’ektlardagi asosiy vositalarning deyarli eski ekanligi, ularni qayta baholanishi bozor qiymatlari bilan mos emasligi xalqaro standartlarga zid hisoblanadi;

asosiy vositalarning katta qismi rekonstruksiyaga yangilanishiga, kengaytirilishiga ehtiyojlarning borligi;

asosiy vositalarning samarali foydalanishi va ilmiy tadqiqotlarga ehtiyoji borligi hisoblanadi.

Jahonda iqtisodiy jarayonlarga davlat aralashuvini kamaytirish maqsadida hisob ishlari qisman reglamentlashtirilgan bo‘lib, korxona asosiy vositalarni tan olishni, amortizatsiyasi, qayta baholanishi, hisobotlarda aks ettirilishi kabi ko‘rsatkichlarni o‘zlari mustaqil tanlaydilar. Bizda esa bu asosan soliq organi tomonidan cheklovlar mavjud. Albatta bu holat “korxona boshqa usullarni qo‘llashi mumkin emas” degani emas. Ammo korxonada hisob ishlarining uzaymasligi va ikki marta hisob-kitob ishlarini olib bormasligi uchun vaqtdan yutish maqsadida korxonalar Soliq kodeksi bo‘yicha hisob-kitoblarini amalga oshirishadi (6-jadval).

6-jadval.

16-son BHXS “Asosiy vositalar” va Soliq kodeksi o‘rtasidagi asosiy tafovutlar[22]

Ko‘rsatkichlar	16-son BHXS “Asosiy vositalar”	Soliq kodeksi
Amortizatsiya usuli	To‘g‘ri chiziqli va tezlashtirilgan usullar	Asosan to‘g‘ri chiziqli
Qayta baholash	Adolatli qiymatlarida	Asosan indeks usulida
Eskirish asoslari	Foydali xizmat muddati asosida	Soliqqa oid me’yorlarga asosan
Tan olish mezoni	Aktiv sifatida e’tirof etiladi	Soliqqa tortiladigan baza sifatida
Hisobotga ta’siri	Adolatli qiymatiga yaqin	Soliq manfaatlariga yo‘naltirilgan

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Asosiy vositalar hisobini xalqaro standartlarga muvofiq yuritishning metodologik masalalari”** deb nomlanib, asosiy vositalarning xalqaro standarlarga muvofiq baholash, 16-son BHXS “Asosiy vositalar” standartiga muvofiq ko‘chmas mulk (yer, bino), mashina va asbob-uskunalar bilan bog‘liq davomiy xarajatlar hisobining metodik masalalari hamda asosiy vositalarning eskirishi hisobini takomillashtirish masalalari tadqiq qilingan.

[22] Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Xalqaro amaliyotda asosiy vositalarni baholashda adolatli qiymat tushunchasi mavjud. Adolatli qiymat asosiy vositalarni bozor qiymatida baholanishi hisoblanadi. Bizda qayta baholash asosan davlat tomonidan e'lon qilinadigan indekslar orqali amalga oshiriladi. Xalqaro standartlar bo'yicha esa "Ko'chmas mulk, plant, mashina va asbob-uskunalar (Property, Plant and Equipment)"lar haqiqiy tannarxi yoki faol bozordagi adolatli qiymatida ifodalanadi.

Tashkilot o'zining hisob siyosatida 16-son BHXS "Asosiy vositalar" standartning 30-paragrafida izohlangan **boshlang'ich qiymat modeli** yoki 31-paragrafga muvofiq **qayta baholash modelidan** birini tanlashi kerak va tanlangan hisob siyosati mulk, bino, mashina va asbob-uskunalarning butun sinflari bo'yicha qo'llanilishi shart.

Chet el va mahalliy tajribalarni umumlashtirgan holda standart talablariga muvofiq ravishda mashina va asbob-uskunalar boshlang'ich tannarxi (BQ) quyidagi elementlardan tashkil topishini e'tirof etamiz:xarid bahosi (HN), shu jumladan import poshlinalari va xarid jarayonida qaytarilmaydigan soliqlar (ST), savdo chegirmasi chiqariladi (Ch); aktivni mo'ljallagan joyiga ortib olib kelish va uni ishchi holatga keltirish bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri xarajatlar, jumladan: mulk, plant hamda mashina va asbob-uskunalarni yaratish yoki xarid qilish bilan bevosita bog'liq xodimlarni rag'batlantirish xarajatlari (19-son BHXS "Xodimlarni rag'batlantirish" standartiga muvofiq) (MH); maydonni tayyorlash xarajatlari (MT); ortish va tushirish xarajatlari (TK); montaj va o'rnatish xarajatlari, asbob-uskunalarni testdan o'tkazish (sinash natijasida olingan mahsulotlarni sotishdan olingan tushum chiqariladi) (O'Sh)**;** professional xizmatlar qiymati (PX); aktivni terish, demontaj va u joylashgan maydonni tiklanishining mo'ljaldagi qiymati (BX).

Mashina va asbob-uskunalarning boshlang'ich qiymatini **(**BQ) shakllantirish formulasini quyidagicha umumlashtirish mumkin:

$$BQ = (HN - Ch) + ST + TK + MH + MT + O'Sh + PX + BX \quad (1)$$

"Samarqanddonmahsulotlari" AJ va "Hudud gaz ta'minoti" AJ korxonalarida asosiy vositalarni 2021-yil 1-yanvar holatiga qayta baholangan va boshqa qayta baholash amalga oshirilmagan. Ulardagi asosiy vositalarni qiymatini o'zgarmasligini ko'rishimiz mumkin. Holbuki bozorda narx oshishi, inflyatsiya natijasida korxonadagi aktivlar adolatli qiymat bo'yicha qayta baholanmay kelmoqda. Ya'ni 13-son MHXS "Haqqoniy qiymatni baholash" standarti talablariga javob berilmayapdi.

Asosiy vositalarga qilinadigan xarajatlarning katta qismini davomiy xarajatlari tashkil qiladi. Har bitta korxona faoliyat yuritar ekan asosiy vositalariga texnik xizmatlar ko'rsatadi va bu texnik xizmatlar o'tkazish muddatlari qancha vaqt ichida o'tkazilishi hisob siyosatida ko'rsatilgan bo'ladi. Bunday texnik ko'riklar asosan korxonaning xarajatlariga olib boriladi, ammo shunday vaziyatlar borki ishlab turgan texnikaning buzilishi yoki ehtiyot qismlarining ishdan chiqishi oqibatida ushbu asosiy vositalar yaroqsiz holga kelib qoladi. Bunday vaziyatda

[23] 16-son BHXSi asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

asosiy vositalarga qilingan xarajatlar asosan asosiy vositalarning balans qiymati summasini oshishiga olib keladi. Ba’zi korxonalarda bunday xarajatlar uchun alohida fondlar ham tashkil qilinadi va qilingan xarajatlar summasi o‘sha tashkil qilingan fond summasidan qoplanadi.

Quyidagi jadvalda korxonalarning davomiy xarajatlari 2021-2024-yillar kesimida tahlil qilingan bo‘lib, korxonalarda joriy ta’mirlashga ketadigan xarajatlar davomiy xarajatlariga qaraganda katta qismini tashkil qilishini ko‘rishimiz mumkin. Ya’ni joriy ta’mirlash xarajatlari yirik qism almashtirish xarajatlaridan ikki barobar, texnik ko‘rik va diagnostika xarajatlaridan esa uch barobar ko‘pligi aks ettirilgan. Shunday ekan joriy ta’mirlash xarajatlariga alohida fond tashkil qilinsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

7-jadval.

O‘zbekiston amaliyotida asosiy vositalarning davomiy xarajatlari[24]

(mlrd so‘m)

Yil	Joriy ta’mirlash	Yirik qismlarini almashtirish	Texnik ko‘rik va diagnostika
2021	820,5	340,6	260,7
2022	950,9	420,7	310,3
2023	1120,7	510,2	370,4
2024	1300,3	590,3	450,1

Ushbu qoidalardan kelib chiqib davomiy xarajatlarni ikkita guruhga ajratish maqsadga muvofiq hisoblanadi: kapital xarajatlar va daromad keltiruvchi xarajatlar. Kapital xarajatlar deganda, aktivlarning birinchidan, sifatini yuksaltirish (improve quality) ya’ni, boshqacha qilib aytganda aktivlarning amal qilishini yaxshilaydigan yoki yuksaltiradigan (betterments or improvements) va ikkinchidan, aktivlarning xizmat qilish muddatini uzaytirishga olib keladigan (extend the life) sarflarga aytiladi. Kapital xarajatlar aktivlarning qoldiq (kitob) qiymatining yuksalishiga olib keladi. Kapital xarajatlar ekstraordinar remont xarajatlarida o‘z aksini topadi.

Daromad keltiruvchi xarajatlari - joriy hisobot davri yoki kelgusi davrlarda daromad olishga xizmat qilishga qaratilgandir. Aktivlardan joriy foydalanish bilan bog‘liq daromad xarajatlari aktivlarning qiymatini yuksaltirmaydi va ushbu xarajatlar joriy davr xarajatlariga olib boriladi. Daromad keltiruvchi xarajatlari ordinar remont xarajatlarida o‘z aksini topadi.

“Samarqanddonmahsulotlari” AJda 2023-yil 1-yanvar holatiga asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati 37073857750,61 so‘m, eskirish qiymati esa 21361852363,76 so‘mni tashkil qilgan. 2024-yil 1-yanvar holatida boshlang‘ich qiymat 37052009102,48 so‘m, eskirish qiymati 25707385029,93 so‘mni tashkil qilgan. 2025-yil 1-yanvar holatiga esa boshlang‘ich qiymat 37830399538,95 so‘m, eskirish qiymati 29455021386,53 so‘mni tashkil qilgan. Yuqoridagi summalardan ko‘rinib turibdiki, asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymatlarida katta summaga o‘zgarish ro‘y bermagan, ya’ni asosiy vositalarning yangilanishi deyarli kuzatilmagan hamda kapital ta’mirlash ishlari olib borilmagan. Lekin eskirish

[24] O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi statistik ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

summalarida sezilarli o‘zgarish ro‘y bergan, ya’ni korxonada har yili to‘rt milliard so‘mdan ziyod eskirish summasi hisoblangan. Demak, korxonaning asosiy vositalarining qoldiq qiymatining summasini kamayishini ko‘ramiz, bu esa korxonaning asosiy vositalari davomiy ta’mirlash ishlariga moyilligini oshiradi, hamda xarajatlar miqdorini oshishiga olib keladi.

“Samarqanddonmahsulotlari” AJ va “Hudud gaz ta’minoti” AJlarida davomiy xarajatlari uchun fond tashkil qilinishi zarur hisoblanadi. Asosiy vositalarni eski ekanligi, binolarning ta’mir talab bo‘lib qolganligi oqibatida, kelajakda har ikkala korxona ham katta xarajat qilishi kutilmoqda. Bu esa mahsulot va xizmat tannarxini keskin oshishi, xarajatlar miqdorini ko‘payishiga olib keladi. Hozirdan fond tashkil qilinishi bunday muammoli vaziyatlarni oldini olgan bo‘lar edi. Ushbu maqsadda schotlar rejasida 8920 “Asosiy vositalarni ta’mirlash xarajatlari uchun rezerv” schotini ochishni taklif etamiz.

Quyidagi jadvalda davomiy xarajatlarining turlari hamda yurtimizdagi korxonalar orqali misollar keltirilgan.

8-jadval.

Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarga muvofiq davomiy xarajatlarining turlari[25]

Xarajat turi	Hisobda aks ettirilishi	Amaliy misollar	Bux. yozuvlari		Summa
			Debet	Kredit	
Joriy ta’mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish	Balans qiymatiga qo‘shilmaydi, foyda va zarar hisobotida tan olinadi	Joriy ta’mirlash: Toshkentdagi sement zavodi 2024-yilda 180 450 000 so‘mlik stanoklarni yog‘lash va mayda ta’mirlash ishlarini amalga oshirgan. Bu xarajatlar “Foyda va zarar” hisobotida davomiy xarajati sifatida aks ettirildi.	2010 8920	8920 6710, 1010 va b/sch	380 000 000 180 450 000
Yirik qismlar va agregatlarni almashtirish	Tan olish mezonlariga ko‘ra aktivning balans qiymatiga qo‘shiladi	Yirik qismlarni almashtirish: “UzAirways” aviakompaniyasi har 7 yilda Airbus A320 samolyotida 450 850 000 so‘mlik kreslo va bort jihozlarini yangilaydi. Ushbu xarajatlar asosiy vositalarning qiymatiga qo‘shiladi va keyingi yillarda amortizatsiya qilinadi.	0820 0131	6010 0820	450 850 000 450 850 000
Yirik texnik tekshiruvlar (inspection)	Tan olish mezonlari bajarilganda aktivning qiymatida tan olinadi	Yirik texnik tekshiruv: “O’zAvtoMotors” AJda ishlatiladigan press-qolip uskunalari har 5 yilda 620 720 000 so‘mlik texnik diagnostikadan o‘tkaziladi. Bu xarajatlar aktivning qiymatiga kapitalizatsiya qilinadi.	0820 0131	6010 0820	620 720 000 620 720 000

[25] Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Amortizatsiyaga oid hisob siyosatini ishlab chiqishda aktivlarning foydali xizmat qilish muddati va likvidatsion qiymatini belgilash muhim jarayon hisoblanadi. Bu ishga faqat buxgalterlar emas, balki muhandislar, boshqa bo‘linmalar menejerlari ishtirok etishi lozim. Amortizatsiya summalarini to‘g‘ri hisoblash asosiy vositalarning holatini baholash va moliyaviy natijalarni haqqoniy baholash imkonini belgilaydi. Quyidagi 2-rasmda aktivlarning foydali xizmat muddatini belgilovchi omillar keltirilgan.



2-rasm. Aktivlarning foydali xizmat muddatini belgilovchi omillar[26]

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Asosiy vositalarni xalqaro standartlarga muvofiq qayta baholash, qadrsizlanishi va hisoboti masalalari**” deb nomlanib, unda asosiy vositalarni xalqaro standartlarga muvofiq qayta baholash natijalari hisobi, asosiy vositalarni xalqaro standartlarga muvofiq qadrsizlanishi hisobi, asosiy vositalarga doir axborotlarni hisobotlarda aks ettirish metodologiyasini takomillashtirish masalalari tadqiq qilingan.

Asosiy vositalar korxona aktivlarining muhim qismini tashkil etadi va ularning qiymati moliyaviy natijalarni belgilashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Amaliyotda asosiy vositalar qiymati vaqt o‘tishi bilan eskirish, inflyatsiya, bozor sharoitlari o‘zgarishi tufayli real qiymatidan farqlanib turadi. Shu sababli Moliyaviy hisobot xalqaro standartlari xususan, 16-son BHXS “Property, Plant and Equipment” asosiy vositalarni qayta baholash mexanizmini joriy etishni talab qiladi.

[26] Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Asosiy vositalarni xalqaro standartlarga muvofiq qayta baholash natijalarining hisobini takomillashtirish quyidagi ustunliklarni beradi: 1. Aktivlarning real qiymatini moliyaviy hisobotlarda aks ettirish; 2. Investorlar va kreditorlarga ishonchli ma’lumot taqdim etish; 3. Amortizatsiya hisobini aniqroq qilish va moliyaviy natijalarni haqqoniy ko‘rsatish; 4. Korxonalarning xalqaro bozor va investitsion maydonga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish.

5-son BHMS “Asosiy vositalar” va 16-son BHXS “Asosiy vositalar” standartlari asosiy vositalarni qayta baholash masalalari bo‘yicha taqqoslash natijalarini quyida 9-jadvalda keltiramiz.

9-jadval.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va buxgalteriya hisobining milliy standartlaridagi qoidalarni taqqoslash[27]

Mezon (qoidalar)	5-son BHMS	16-son BHXS	Izoh va statistik ma’lumotlar
Qayta baholashga ruxsat	Ruxsat beriladi, lekin metodik yo‘riqnomalar cheklangan	To‘liq qayta baholash modelidan foydalanish mumkin	O‘zbekistonda ko‘plab AJ korxonalarda asosiy vositalar hali ham tarixiy qiymatda aks ettirgan, natijada ularning real qiymati bilan 25–40% farq kuzatiladi.
Qayta baholash mexanizmi	Umumiy ko‘rsatmalar mavjud	Adolatli (fair value) qiymat bo‘yicha professional baholash talab qilinadi	Masalan, Toshkentdagi qurilish kompaniyalarida bino va inshootlar qayta baholanganda qiymat 1,5 barobargacha oshgan.
Moliyaviy hisobotlarda ochiqlanish	Umumiy tarzda qayta baholash faktini ko‘rsatadi	Batafsil ochiqlash: sanasi, baholovchilar, metod va hisob-kitoblar	Xalqaro amaliyotda auditorlar qayta baholash tafsilotisiz hisobotni shaffof deb hisoblamaydi.
Qayta baholash natijalari	Ko‘pincha balans qiymatini tuzatish bilan cheklanadi	Kapital bo‘limida alohida zaxira sifatida ko‘rsatiladi	Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, qayta baholash zaxirasi kapitalning 10–20% gacha bo‘lishi mumkin.
Davriylik	Aniq belgilanmagan, korxona hisob siyosatiga bog‘liq	Muntazam, bozor qiymati sezilarli o‘zgarganda	Xalqaro tajribada odatda 3–5 yilda bir marta qayta baholash amalga oshiriladi.

Ushbu jadvaldan ko’rish mumkinki, 5-son BHMS qayta baholashga ruxsat bergan bo‘lsa-da, metodik aniqlik darajasi past. 16-son BHXSda esa qayta baholash natijalarini muntazam, adolatli qiymat asosida va batafsil izohlar bilan

[27] Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

hisobda aks ettirishni talab qiladi. Statistik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, qayta baholash natijasida O‘zbekiston AJlarida asosiy vositalar qiymati o‘rtacha 30% ga oshmoqda. Bu korxonalarning moliyaviy hisobotlari va kapital bozoridagi ishonchlilik darajasiga bevosita ta’sir qilmoqda.

Korxonalar moliyaviy hisobotida aktivlarning haqqoniy qiymatini ko‘rsatish xalqaro amaliyotda muhim talab hisoblanadi. Vaqt o‘tishi bilan texnologik o‘zgarishlar, bozor talabining pasayishi, inflyatsiya yoki ishlab chiqarish samaradorligining yomonlashuvi natijasida aktivlar qiymati sezilarli darajada kamayishi mumkin. Bu jarayon qadrsizlanish (impairment) deb ataladi. Qadrsizlanish aktivlarning moliyaviy natijalarga ta’sirini oshirib, korxonalar daromad va foyda ko‘rsatkichlarini qayta baholash zaruratini tug‘diradi.

Quyida asosiy vositalarda qadrsizlanishning asosiy sabablari, ularning izohlari va statistik misollar 10-jadval ko‘rinishida keltirilgan.

10-jadval.

Korxonalarda asosiy vositalarning qadrsizlanish sabablari[28]

Sabab	Izoh	Statistik misol
Bozor narxlarining keskin tushib ketishi	Aktivning bozor qiymati qisqa muddatda pasayib, balans qiymatidan pastga tushishi.	2020-yilda pandemiya davrida neft narxi 60% gacha pasayib, ko‘plab neft kompaniyalarida aktivlar qadrsizlandi.
Texnologik yangiliklar va eskirish	Yangi texnologiyalar paydo bo‘lishi natijasida mavjud uskunalar va jihozlar eskiradi.	O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida 2018–2022-yillarda eski uskunalarning 35% qadrsizlangan deb baholangan.
Ishlab chiqarish hajmining kamayishi	Korxonada ishlab chiqarish rejalashtirilgan darajada amalga oshmay qolsa, aktivlarning qiymati pasayadi.	Metallurgiya sohasida ishlab chiqarish 2022-yilda 12% ga kamaygani sababli ayrim korxonalarda asosiy vositalar qayta baholandi.
Huquqiy va ekologik cheklovlar	Yangi qonunlar yoki ekologik talablar ayrim uskunalarni ishlatishni cheklaydi.	2021-yilda Yevropa Ittifoqida chiqindilarni kamaytirish talablari tufayli ko‘plab avtomobil zavodlari aktivlarining 10% qadrsizlandi.
Tashqi iqtisodiy inqirozlar va moliyaviy beqarorlik	Global moliyaviy inqirozlar aktivlar bozorini beqarorlashtirib, ularning qiymatini tushiradi.	2008-yilgi moliyaviy inqirozda AQSh va Yevropa kompaniyalarining 25% goodwill aktivlari qadrsizlangan.

MHXSga muvofiq asosiy vositalarning qadrsizlanishini alohida schotda yuritish korxona aktivlarining real qiymatini haqqoniy aks ettirish, kelgusida ularning bozor narxidagi pasayishlarni oldindan identifikatsiya qilish va moliyaviy risklarning oshkoraligini ta’minlaydi. MHXSda eng muhim qoidalardan biri “aktiv

[28] Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

sifatida dastlabki tan olingandan so‘ng Mulk (yer, bino), plant hamda mashina va asbob-uskunalar ob’ektlari jamg‘arilgan amortizatsiya va qadrsizlanishdan ko‘rilgan jamg‘arilgan zararni chegirib tashlagandan keyingi uning boshlang‘ich qiymatida hisobga olinadi” hisoblanadi. Ushbu standart talablarini bajarish maqsadida tadqiqot doirasida amaldagi milliy standartlarda mavjud bo‘lmagan 0291 – “Asosiy vositalarning qadrsizlanishi” nomli alohida hisobvarag‘ni joriy etish taklif qilindi. Ushbu hisobvarag‘ining joriy etilishi aktivlarning balans qiymati bilan ularning tiklanish qiymati o‘rtasidagi tafovutni to‘g‘ri va iqtisodiy mazmunga mos holda aks ettirish imkonini beradi, shu bilan birga moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlar bilan muvofiqligini ta’minlaydi.

Aktivning qoplanadigan qiymati uning balans qiymatidan kichik bo’lgan hollarda qadrsizlanishdan zarar yuzaga keladi. Natijada, ushbu aktivning balans qiymati qoplanadigan qiymatga qadar kamaytirilishi talab etiladi.

Ushbu kamaygan summa qadrsizlanishdan zarar summasini tashkil etadi.

Qadrsizlanishdan zarar = Aktivning balans qiymati − Aktivning qoplanadigan qiymati (2)

Korxonada yil oxirida qadrsizlanishga tekshiruv o‘tkazilganda yirik mexanizm qiymati pasaygan, ya’ni uning adolatli qiymati 750 300 000 so‘m baholangan. Ushbu qadrsizlanish asoslangan va kompaniya tomonidan tan olingan. Ushbu summa to‘g‘ridan-to‘g‘ri mulk, bino va mashina va asbob-uskunalar qiymatining kamayishiga olib boriladi. Qadrsizlanishdan zarar summasi 160 400 000 so’mni tashkil etadi (910 700 000 – 750 300 000).

Debet 9430 Qadrsizlanishdan zarar.....160 400 000 so‘m

Kredit 0291 Asosiy vositalarning qadrsizlanishi.....160 400 000

Debet 0291 Asosiy vositalarning qadrsizlanishi.. 160 400 000

Kredit 0131 Yirik mashina va mexanizmlar……..160 400 000

Asos: Kompaniya balansida bo‘lgan yirik mexanizm qadrsizlanishi bo‘yicha testdan o‘tkazilganda uning qoplanadigan qiymati 750 300 000 so‘m ekanligi baholandi. Uning balans qiymati 910 700 000 so‘m. Qadrsizlanishdan zarar summasi 160 400 000 so‘m (910 700 000 – 750 300 000 so‘m).

Qadrsizlanish xarajatlarini 9430 – “Qadrsizlanishdan zarar” schotida aks ettirish aktiv qiymatining pasayishi korxonaning asosiy faoliyati bilan bevosita bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi va moliyaviy natijalarning real darajada aks ettirilishini ta’minlaydi. Bu mexanizm natijasida: aktivning balans qiymati kamayadi; xarajat operatsion xarajat sifatida tan olinadi; sof foyda pasayadi; qadrsizlanish tiklanganda esa rezervdan chiqarilib, daromad sifatida e’tirof etiladi va sof foyda oshadi.

2025 yil yakunlari bo‘yicha “Hudud gaz ta’minoti” AJning asosiy vositalari tuzilishi va qiymati tahlil qilindi. Tahlil natijasida: bir qator gaz infratuzilmasi ob’ektlari (gaz quvurlari, gaz taqsimlash punktlari, uzatish qurilmalari)ning balans qiymati bozor qiymatiga nisbatan ortiqcha baholangani aniqlandi; qayta baholash va qadrsizlanish testlari natijasida muayyan aktivlar bo‘yicha 0291 schotida qadrsizlanish summasi shakllantirildi; aktivlar qiymati bozor bahosiga yaqinlashtirildi, ortiqcha baholangan qism hisobdan chiqarildi; asosiy vositalarning

qoldiq qiymati real iqtisodiy qiymatga moslashtirildi; korxona balansining shaffofligi va ishonchliligi oshdi.

Moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobotida ko’chmas mulk, plant, mashina va asbob-uskunalar to‘g‘risidagi axborotlarni quyidagi formatda keltirish mumkin.

11-jadval.

“Hudud gaz ta’minoti” AJning 2024-yil holatidagi moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobotda k o ’ c h m a s mulk, plant, mashina va asbob-uskunalarni aks ettirish (so‘mda)[29]

Ko‘rsatkichlar nomi	Satr kodi	Hisobot yili boshiga	Hisobot yili oxiriga
Uzoq muddatli moddiy aktivlar, jami (040+050+060):	10	727287183.86	455648956.1
Ko’chmas mulk, plant, mashina va asbob-uskunalar boshlang‘ich qiymati jami (021+022+023+024+025+026), shu jumladan:	20	7379121635.79	74946752207.23
Yer va yerni obodonlashtirish	21	0	0
Bino va inshootlar	22	5392636560.59	5392636560.59
Yirik mashina va mexanizmlar	23	17403194.43	94635337.29
Avtotransport vositalari	24	1930072922	1930072922
Mashina va asbob-uskunalar	25	2708906.1	2708906.1
Mebel, ofis jihozlari va uskunalari	26	36300052.67	74621481.25
Jamg‘arilgan amortizatsiya	30	6651834451.93	7039026251.13
Ko’chmas mulk, plant, mashina va asbob-uskunalar balans qiymati (020-030)	40	727287183.86	455648956.1

Ushbu buxgalteriya balansida “Ko’chmas mulk, plant, mashina va asbob-uskunalarning” sinflari h a m d a u l a r n i n g harakatini aks ettiruvchi ma’lumotlar keltirilganligi axborot foydalanuvchilarining qarorlar qabul qilshlari uchun asos bo’lib xizmat qiladi. Bu esa korxona faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Korxonalarda asosiy vositalar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish borasida olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar ishlab chiqildi:

1. 16-son IAS “Property, Plant and Equipment” talablariga mos holda asosiy vositalarning ta’rifiga uning “bir davrdan ko’p vaqt davomida foydalanish ko’zda tutilgan”lik xususiyati kiritilganligi hamda asosiy vositalar tarkibida “yirik mashinalar va mexanizmlar”ni alohida sinf sifatida ajratish, boshlang’ich qiymatini aniqlashda “joylashgan maydonni tiklanishining mo’ljaldagi qiymati”ni kiritish

[29] Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

taklifi ishlab chiqildi. Ushbu taklif asosiy vositalarning real iqtisodiy qiymatini to'liqroq aks ettirishga, aktivlarni tan olish, ularni tasniflash va moliyaviy hisobotda aks ettirish jarayonlarida metodologik aniqlikni ta'minlab, xalqaro standartlarga moslik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

2. Korxonalar hisob siyosatini takomillashtirish yo'nalishlari ishlab chiqildi. Jumladan, 0130 – "Mashina va asbob-uskunalar" schoti tarkibida yangi subschotlarni, ya'ni 0131 – "Yirik mashina va mexanizmlar", 0132 – "Boshqa mashina va asbob-uskunalar", 0133 – "Robotlar va boshqa sun'iy intellekt texnologiyalari"ni joriy etish hamda ushbu schotlarga doir buxgalteriya yozuvlari ishlanmasi taklif etildi. Yirik mashinalar va mexanizmlar tarkibiga yirik energetik asbob-uskunalari, generatorlar, transformatorlar, katta quvvatli dvigatellar, kon metallurgiya sanoatida ishlatiladigan burg'ulash mexanizmlari, neft va gaz sanoatidagi yirik mashinalar, katta kranlar, yirik ekskovatorlar, yirik samosvallar, tankyerlar va boshqa yirik mexanizimlar kiritish tavsiya etildi.

3. Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida raqamli va yuqori texnologik aktivlarning ahamiyati ortib borayotganini inobatga olgan holda, robotlar va sun'iy intellekt texnologiyalarini asosiy vositalar tarkibida alohida hisobga olish zarurligi asoslab berildi. Sun'iy intellekt vositalariga robototexnikalar, mashina va mexanizm ko'rinishidagi sun'iy intellekt texnologiyalari, zamonaviy innovatsion texnologiyalar kiritish tavsiya etildi. Ushbu yondashuv hisobning analitik darajasini oshirib, aktivlarni batafsil guruhlash va nazorat qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu esa korxonalarda innovatsion texnologiyalarni samarali boshqarish, ularning rentabelligini baholash va investitsion qarorlar qabul qilish jarayonlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

4. Asosiy vositalar bilan bog'liq davomiy xarajatlar quyidagicha tavsiflandi: joriy ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish; yirik qismlar va agregatlarni almashtirish; yirik texnik tekshiruvlar (inspection). Davomiy xarajatlarni identifikatsiya qilish qoidalari tavsiya etildi. Joriy ta'mirlash xarajatlari korxonaning joriy xarajatlariga olib borilishi orqali joriy daromadlardan qoplash, kapital ta'mirlash, yirik qismlar va agregatlarni almashtirish, yirik texnik tekshiruvlar xarajatlari esa tan olish mezonlariga javob bergan taqdirda asosiy vositalar qiymatiga olib borilishi maqsadga muvofiqligi asoslandi. Ushbu jarayonlarni buxgalteriya yozuvlarida aks ettirish tartibi taklif etildi.

5. Korxonalarda ta'mirlash va xizmat ko'rsatish xarajatlarini davrlar bo'yicha mutanosib taqsimlash maqsadida 8920 - "Asosiy vositalarni ta'mirlash xarajatlari uchun rezerv" fondini tashkil etish tavsiya etildi. Ushbu mexanizm asosiy vositalardan samarali foydalanish, ularning ishlash muddatini uzaytirish va ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

6. Asosiy vositalarning qadrsizlanishini hisobga olish tizimini takomillashtirish doirasida 0291 – "Asosiy vositalarning qadrsizlanishi" schotini hisob siyosatiga kiritish hamda asosiy vositalarning qadrsizlanishidan zarar balans qiymati bilan qoplanadigan qiymati o'rtasidagi farq sifatida aniqlanishi tavsiya etildi. Bu orqali asosiy vositalarning balans qiymatini ularning haqiqiy tiklanadigan qiymatiga yaqinlashtirish, moliyaviy hisobotlarda aktivlar

qiymatining ishonchliligini oshirish hamda investorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun aniq axborot taqdim etish imkoniyati yaratiladi.

Tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan ilmiy yondashuvlar va amaliy takliflar asosiy vositalar hisobini xalqaro standartlarga moslashtirishga xizmat qiladi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2025.27.12.I.27.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКОМ ИНСТИТУТЕ ЭКОНОМИКИ И СЕРВИСА

САМАРКАНДСКИЙ ИНСТИТУТ ЭКОНОМИКИ И СЕРВИСА

НЕМАТОВА ДИЛНОЗА АЗАМАТОВНА

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ

08.00.08 – Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам

Самарканд – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Академии наук Республики Узбекистан под номером B2023.3.PhD/Iqt3300.

Диссертация выполнена в Самаркандском институте экономики и сервиса .

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб- странице Научного совета (www.sies.uz) и в Информационно-образовательном портале «ZiyoNET» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Ташназаров Самиддин Низамович** доктор экономических наук, профессор
Официальные оппоненты:	**Махмудов Азамат Нормуродович** доктор экономических наук, профессор
	Ибрагимов Абдугапур Каримович доктор экономических наук , профессор
Ведущая организация:	**Каршинский государственный технический университет**

Защита диссертации состоится «___»_____2026 года в _____ часов на заседании Научного совета DSc.03/2025.27.12.I.27.01 при Самаркандском институте экономики и сервиса. Адрес: Самарканд , 140100, улица Амира Темура, дом 9. Тел.: (998 66) 233-19-84 ; Факс: (998 66) 231-12-53 ; E-mail: sies_info@edu.uz.

Диссертация доступна для ознакомления в Информационно-ресурсном центре Самаркандского института экономики и сервиса (зарегистрирована за № _____). Адрес: город Самарканд, 140100, улица Амира Темура, дом 9. Тел.: (99866) 233-19-84 ; факс : (99866) 231-12-53 ; E-mail: sies_info@edu.uz. Электронная почта: sies_info@edu.uz.

Автореферат диссертации разослан «____» _____, 2026 года.

(Протокол реестра рассылки № ____ от «____» _____2026 года).

М.Э. Пулатов
Председатель научного совета по присуждению учёных степеней, д.э.н., профессор

Ш.О. Кувандиков
Учёный секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

М. Т. Алимова
Председатель научного семинара при научном совете по присуждению учёных степеней, д.э.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире одним из главных показателей развития экономики является коренное совершенствование материально-технической базы всех реальных секторов. Согласно отчету Мирового банка за 2024 год, «общая стоимость приобретенных в мире активов составила 184666 млн. долларов США в 2020 году и 220014 млн. долларов США в 2024 году»[30]. Это свидетельствует о том, что прогрессивное развитие экономики требует модернизации и технологического обновления основных средств на предприятиях. Это во многом зависит от правильного учета основных средств и их устаревания в хозяйствующих субъектах, а также от координации отчетности на международном уровне и оптимальной организации аудита по ним.

В мире внедрение Международных стандартов финансовой отчетности (МСФО) направлено на эффективную организацию учета основных средств, стандартизацию информации о стоимости, использовании и движении основных средств, а также совершенствование процедур их оценки по справедливой стоимости. Установлены общие для всех стран методы признания, учета и расчета амортизации основных средств. Однако внедрение достигнутых результатов в практику предприятий развивающихся стран, не было осуществлено в полной мере. Тем не менее, несмотря на это, проблемы справедливой оценки доходов, расходов, первоначальной стоимости и остаточной стоимости основных средств, аренды, а также прозрачного отражения в отчетности остаются актуальными.

В Узбекистане практика составления финансовой отчетности на основе МСФО внедрена для организаций, ценные бумаги которых котируются на фондовой бирже и торгуются на бирже (Publicly Traded Entity), коммерческих банков, страховых организаций, бирж и общественных организаций. Важное значение приобретают разработка нового порядка определения основных средств в соответствии с международными стандартами, их справедливой стоимости, классификации, уровня обновления, амортизации, качества и эффективности. Согласно данным Национального статистического комитета, «в январе-декабре 2025 года за счет всех источников финансирования развития экономики и социальной сферы были осуществлены инвестиции в основной капитал на общую сумму 591,1 триллиона сумов. Этот показатель вырос на 10,5% по сравнению с 2024 годом. Также объем иностранных инвестиций и займов, направленных на создание новых основных средств, за отчетный период составил 33,5 миллиарда долларов США или 422,1 триллиона сумов» [31] . Эти обстоятельства требуют организации учета основных средств на международном уровне.

Данное диссертационное исследование служит в определенной степени реализации задач, определенных в Указах Президента Республики

---

[30] https://www.vsemirnyjbank.org/ru/about/annual-report

[31] https://stat.uz/en/press-center/news-of-committee/66507-2025-jilda-asosij-kapitalga-investitsiyalar-591-1-trln-s-mga-etdi-4?utm_source

Узбекистан от 30 января 2025 года №УП-16 «О государственной программе по реализации Стратегии «Узбекистан — 2030» в «Год охраны окружающей среды и «зеленой экономики», от 21 февраля 2024 года №УП-37 «О государственной программе по реализации стратегии «Узбекистан — 2030» в «Год поддержки молодежи и бизнеса»», от 11 сентября 2023 года №УП-158 «О стратегии «Узбекистан – 2030», от 28 января 2022 года №УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 — 2026 годы», Постановления Президента Республики Узбекистан от 24 февраля 2020 года №ПП-4611 «О дополнительных мерах по переходу на международные стандарты финансовой отчетности», от 4 августа 2021 года №ПП-5210 «О дополнительных мерах по совершенствованию системы сертификации аудиторов», от 15 сентября 2025 года №ПП-282 «О мерах по совершенствованию системы финансового учета в соответствии с международными требованиями и стандартами» а также в других нормативно-правовых документах, относящиеся к данной области[32].

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий в Республике Узбекистан, диссертация соответствует приоритетному направлению развития науки и техники республики I. «Духовное, нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

Степень изученности проблемы. Порядок организации учета основных средств предприятий на основе действующих международных и национальных стандартов освящены в научных трудах, учебниках, учебных и практических пособиях ученых США, Великобритании и России. Я.В.Соколова, К.Друри, Т.Ю.Дружиловской, Б.Нидлса, Фрэнк Вуда, Ч.Т.Хорнгрена, Р.Хермансон [33] и отечественных ученых А.З.Авлакулова, А.И.Аликулова, Б.Ф.Боронова, Р.Д.Дусмурадова, Ж.Р.Зайналова, А.К.Ибрагимова, И.Н.Исманова, Н.Ф.Каримова, М.Б.Калонова, У.У.Костаева, А.Н.Махмудова, М.Маткаримова, А.Назарова, А.С.Пардаева, М.К.Пардаева, М.Э.Пулатова, Г.М.Максимовой, Н.К.Ризаева, С.Н.Ташназарова, М.Ж.Темирхановой, К.Б.Уразова, Н.Ш.Хаджимуродова, Ш.Т.Эргашевой, З.Б.Эшпулатовой, З.Н.Курбанова, К.Р.Хотамова[34] и других.

---

[32] https://www.lex.uz

[33] Я.В.Соколов. Основы теории бухгалтерского учета. — Москва : Финансы и статистика, 2003. — 496 с. Управленческий и управленческий учет. 10-е издание. Колин Дрюри. Издатель: Аннабель Эйнскоу. https://www.pdfdrive.com/management-and-cost-accounting-e183857367.html ; Т.Ю.Дружиловская, Бухгалтерский учет в системе международных стандартов финансовой отчетности : учебник для вузов / Т. — Москва : КноРус, 2021. — 291 с. Б.Нидлз и др. Принципы бухгалтерского учета / Б.Нидлз, Х.Андерсон, Д.Колдуэлл -М.: Финансы и статистика. 2003. -496 с.; Фрэнк Вуд. Бухгалтерский учет для предпринимателей. М.: ООО «Аскери», 2006; Учет затрат Хорнгрена. Гарвардский университет. В.Мадхав Раджан, Стэнфордский университет. 2017.pdf ; Хермансон, Х.Роджер Бухгалтерский учет: бизнес-перспектива / Х.Роджер Хермансон, Джеймс Дон Эдвардс, В.Майкл Махер. 6-е изд., Ирвин, напечатано в США, 2009. 926 с.

